

2..Ахмадуллин Р.М. Принципы функционирования исламской финансовой системы // Вестн. Казан. юрид. ин-та МВД России. – 2011. – № 6. – 226-229

3.Беккин Р.И. Исламское финансовое право и его роль в регулировании исламских финансов. Ученые записки Казанского университета. 2013. с.134-144

4.Калимуллина М.Э. Стандартизация исламских финансовых сделок. Актуальные проблемы российского права, 2017, с.122-126.

5.Усмани Мухаммад Таки. Введение в исламские финансы / пер. с англ. Ля Руба-Финанс. — М.: Исламская книга, 2016. — 160 с.

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYASIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Qurbanqulova Nazokat

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b.PhD

Sug'urta kompaniyalari faoliyati moliya bozori ekotizimida va insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi tarixan ham ma'lum bo'lsada, respublikamizda sug'urta bozori rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda. Natijada global raqobatdoshlik talablariga milliy sug'urta kompaniyalari har doim ham javob bermoqda, deya olmaymiz. Bu jarayonda "sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali etishga qanday muammolar to'sqinlik qilmoqda?", degan savol yuzaga kelishi tabiiy holat hisoblanadi.

Avvalo sug'urta bozori muhim ishtirokchilari sanaladigan sug'urtalovchilar, ya'ni sug'urta kompaniyalari sonining o'zgarish dinamikasiga e'tibor qaratsak, umumiy tendensiyada ustav kapitali miqdori oshishda davom etayotgan bo'lsada, sug'urtalovchilar soni oxirgi to'rt yil davomida pasayish tendensiyasiga ega. Ya'ni 2021 yil 31 dekabr holatiga sug'urta kompaniyalari soni 42 tani tashkil etgani holda muntazamlik asosida sug'urtalovchilar soni kamayib, 2024 yil 31 dekabr holatiga 33 ta sug'urta kompaniyasi sug'urtalovchi sifatida litsensiyaga ega va faoliyat ko'rsatayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz³⁰⁵. Umumiy hisobda 9 ta sug'urta tashkiloti, ya'ni 21,4 foiz sug'urta kompaniyasi litsensiyasi chaqirib olinganligi yoki o'z faoliyatini to'xtatganligi sug'urta bozori uchun nihoyatda katta ko'rsatkich va achinarli holat ekanligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Bunga asosiy sabablardan biri 2022 yil fevral oyidan boshlab barcha sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini faqatgina aksiyadorlik jamiyati sifatida olib borishi shartligidir. Respublikamizda biznesning aksiyadorlik jamiyati sifatida olib borilishining muammoli jihatlari ham mavjudki, ular sug'urta kompaniyalari

³⁰⁵ Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlar asosida shakllantirildi.

faoliyati davom ettirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunda 2015 yildan respublikamizda amal qilib kelayotgan har qanday aksiyadorlik jamiyatlari o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standart asosida e'lon qilishi belgilangan. Ya'ni "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e'lon qilishi shart."³⁰⁶ Mazkur amaliyot qo'shimcha xarajat sifatida yangi tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini murakkablashtirmoqda. Chunki milliy standartlarda tuzilgan aksiyadorlik jamiyati moliyaviy hisobotini Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq transformatsiya qilish, transformatsiya qilingan moliyaviy hisobotni o'z navbatida Xalqaro audit standartlari asosida auditdan o'tkazish xorijiy auditorlik kompaniyalari tomonidan amalga oshirilmogda. Va bu har qanday aksiyadorlik jamiyati uchun bo'lgani kabi aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari uchun yirik miqdordagi qo'shimcha xarajatga olib kelmoqda. ShU boisdan yangi tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun mazkur talab kamida 5 yilga bekor qilinishi yoki ixtiyoriylikka o'tkazilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Sug'urta kompaniyalari sonining keskin kamayishiga yana bir sabab sifatida litsensiya talabi sifatida belgilanadigan ustav kapitali minimal miqdorining muntazam oshirilib kelinayotganligini ko'rsatib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sug'urta bozorini tartibga soluvchi regulyatorga aylangan 2023 yil sentyabrdan buyon³⁰⁷ faqat bitta yangi sug'urta kompaniyaga litsensiya berildi, o'z navbatida 8 ta sug'urta kompaniyasi litsenziyasi bekor qilindi.

2023 yil sentyabrdan buyon 2 ta hayot sug'urta kompaniyasi va 6 ta umumiy sug'urta kompaniyasi litsenziyasi bekor qilingan. Va shu davr ichida faqat bitta sug'urta kompaniyaga, ya'ni TBC Sug'urta aksiyadorlik jamiyatiga faoliyat boshlash uchun litsenziya berilgan. Mazkur vaziyatda umumiy sug'urta bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning bekor qilinishiga asosiy sabab ustav kapitalini belgilangan minimal talabga yetkaza olmaganligidir. O'z navbatida hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarda ustav kapitaliga minimal tala oshishi bitta sabab bo'lsa, ikkinchisi jismoniy shaxslarning hayot sug'urtasiga o'tkazmalari bo'yicha taqdim etilgan soliq imtiyozining 2023 yil 1 yanvardan bekor qilinishidir. Soliq imtiyozi bekor qilinishi hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni keskin kamaytirdi. Shuni qayd etish kerakki, milliy iqtisodiyotdagi yuqori o'sish sharoitida sug'urta kompaniyalari sonining bunday qisqarishi, sug'urta bozoriga bo'lgan ishonch haqiqatda pastligini ham namoyon qilayotgandek.

³⁰⁶ O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni. 102-modda.

³⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-291-sonli Qarori, 8-bandi.

Yangi tashkil etilgan TBC Sug'urta aksiyadorlik jamiyatiga keladigan bo'lsak, mamlakatimizda deyarli har bir bankning o'z sug'urta tashkiloti mavjud. BUndan asosiy maqsad bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarni yoki kredit ta'minoti sifatida qabul qilinadigan garov mol-mulkini sug'urtalashda sug'urta mukofotini o'z sug'urta tashkilotida qoldirishdir. Lekin tijorat banklari tomonidan kredit riskini yoki garovga olingan mol-mulkni faqat bitta, u ham bo'lsa o'z sug'urta tashkilotida sug'urtalash ham yuqori riskni yuzaga keltirib qo'yishini shu o'rinda qayd etishimiz lozim. Bunday amaliyotga qarshi tijorat banklari regulyatori chora ko'ra ko'rmayotgan bir vaqtda TBC bank ham o'z sug'urta tashkilotini tashkil etganligini ko'rmoqdamiz.

Respublikamizda sug'urta kompaniyalari soni kamayish tendensiyasiga ga bo'lgan bir vaqtda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sug'urta bozori regulyatori sifatida sanksiyalar qo'llash vakolatiga ham ega. Amalda regulator buni sug'urta kompaniyalarida tegishli talablar bajarilmaganida qo'llab ham kelmoqda. Jarima sanksiyalardan tashqari ILMA sug'urta kompaniyalari litsenziyani vaqtinchalik to'xtatib qo'yish amaliyotlari bilan ham shug'ullanmoqda. Lekin jarima va boshqa shakldagi sanksiyalarning qo'llanilishi sug'urta bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yuldashev Saydullo

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Turizm va mehmondo'stlik

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasini moliyalashtirishning dolzarb masalalari va uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat investitsiyalari, bank kreditlari hamda xususiy investitsiyalarning roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm sohasini moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida turizm sohasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, turizmni moliyalashtirish, investitsiyalar, turizm infratuzilmasi, multiplikator effekti.

Jahon iqtisodiyotining eng barqaror rivojlanayotgan sohalaridan biri bu turizm sohasidir. 2025-yilgi global YaIMga turizm sohasi 11,7 trillion AQSH dollari miqdorida ulushini qo'shdi. Bu dunyo iqtisodiy ishlab chiqarishining 10,3